

Oila-ma'naviyat qo'rg'oni



Oila-ma'naviyat qo'rg'oni

Mudofaa vazirligi Jamoatchilik kengashi Surxondaryo viloyati mintaqaviy bo'linmasi va Termiz shahar Manaviyat va ma'rifat bo'linmasi hamkorligida Termiz shahrida joylashgan N-sonli harbiy qism Madaniyat markazida "15-may Xalqaro oila kuni"ga bag'ishlangan "Oila-ma'naviyat qo'rg'oni" mavzuida madaniy-marifiy tadbir o'tkazildi.

Tadbirda Janubiy operativ qo'mondonligi, Termiz harbiy prokuraturasi, viloyat Mudofaa ishlari boshqarmasi, shahar Adliya bo'limi, keng jamoatchilik vakillari hamda harbiy xizmatchilar va ularning oila azolari, shuningdek shahar mahalla fuqarolari yig'inlaridan oilalar ishtirok etdi.

Tadbirda soʻzga chiqqanlar "15-may Xalqaro oila kuni" munosabati bilan barchani tabriklab, oila muqaddas tushuncha ekanligi, uni asrab-avaylash, mustahkam oila - jamiyat poydevoriligi toʻgʻrisida maʼlumotlar berib oʻtdilar.

Tadbirda davomida Termiz ixtisoslashtirilgan sanʼat maktabi badiiy jamoasi tomonidan bayramona kuy-qoʻshiklar kuylanib tomoshabinlar qalbiga xushyoqqan boʻlsa, Termiz muhandislik texnologiyalari instituti qoshidagi "Chagʻoniyon" teatr jamoasining oʻzbek milliy oilalari, ularda saqlanib qolgan qadriyatlarga asoslanib sahnalashtirilgan chiqishlari barchaga manzur boʻldi.

Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown



Image not found or type unknown




Image not found or type unknown



Image not found or type unknown

